

AROSAT

Ikromjon o'ziga yetkazilgan xabardan so'ng yashin urgan daraxtdak bir yoniga cho'kkalab qoldi. Egnidagi ohori to'kilmagan kuyovlik sarpolari yer bilan yuz ko'rishdi. Yonida do'stini tutib qolgan Adhamning esa ko'zidan duvillab yosh sizib chiqdi...

Umrining eng baxtli kuni, yani nigoh oqshomida Ikromjonning onasi vafot etgan edi. Bazm boshlanishiga bir oz fursat qolgandi. Shu sababli mahalla oqsoqolining boshi qotdi. To'yni to'xtataylik desa, hali oq-qorani endi farqlay boshlagan yoshlar qalbida bir umrlik dog' qoladi. To'xtatmaylik desa marhumaning hurmati...

Shum xabar hali ko'pchilikka tarqab ulgurmagan, faqatgina yaqin qarindoshlar xabar topgan edi. Xonadon kattalari maslaxatlashib, to'yni qisqa bo'lsa ham o'tkazib yuborishga va marhumani erta tongda so'ngi manzilga kuzatishga kelishib olishdi. Faqat bu xabarni dardi dunyosini zulumat cho'g'lari qoplagan Ikromjonga yetkazishga hech kimning yuragi dov bermasdi. Nihoyat bu mushkul vazifani mahalla oqsoqqoli o'z bo'yniga oldi va unga yaqinlasha boshladi.

- o'glim bandalik ekan. O'zingni qolga ol. Onang dunyodan yaxshi yashab o'tdi. Xudo rahmatiga olgan bo'lsin. Uning eng katta orzusi seni to'yingni ko'rish edi. Shuning uchun bu to'yni to'xtata olmaymiz. Amakilaring bilan maslaxatlashib, Nazirani ertaga chiqarishga kelishib oldik.

Oqsoqolning gapi og'zida qoldi. Alamini kimdan olishni bilmagan Ikromjon onasi yotgan xona tomon shaxd bilan yurib ketdi. Uch qadam qolgan ham ediki katta amakisi yo'lini to'sib, eshik tutqichini ushlab qoldi.

-Bunday qilma o'g'lim. Raxmatli otang haqqi, marhuma onang haqqi bunday qilma bolam! Kecha Naziraning yoniga kirganimda ko'ngli sezgan ekanmi to'yni tezroq o'tkazmadikda, xotirjam o'tib ketardi degan edi. Bundan hech kimning xabari yo'q. To'y bir marta bo'ladi bilib qo'y. Bir umr armonda o'tasan. Faqat o'zingni emas kelinni ham o'ylagin. Uning ham xabari bo'lamasa kerak. Ne-ne umidlar bilan ostonangga qadam qo'ydi. Shu boisdan davraga qayt! Ota-onangni ham eng so'ngi orzusi seni to'yingni ko'rish edi, unutma!

Boshqa safar bo'lgandaku qanday javob qaytarishni o'zi bilardi. Ammo vaziyat umuman boshqacha. Amakisi to'g'ri aytdi. Guliga qancha vadalar bergan edi. Bechora onasi to'yida davradan chiqmay o'ynamoqchi edi afsus. Endi orqaga

yo'l yo'q. Amakisini tutib turgan qo'lini sekin pastga tushirdi. Orqaga tisarilib, kelin turgan xona tarafga yurib ketdi.

Bazm boshlandi. Ikki yosh yor-yor sadolari ostida davraga kirib kela boshladi. Ikromjon onasi yotgan xona oldidan o'tayotganda beixtiyor qalqib tushdi. Taqdirni hazilini qarangki yonida oq libosda sevgan insoni, ichkarida esa oq matoga o'ralgan mehribon onajonisi yotibdi. Qanday yo'l tutmoq kerak. Endi tushundi. Amakisi adashgan ekan. Bu to'y o'tsa ham, o'tmasa ham uning qalbida bir umrga armon qoladi.

Xalq og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Sovuq xabar ko'p o'tmay butun davraga tarqab ulgurdi. Hali dasturxonga noz-nematlarni tortib ulgurmay odamlar siyraklasha boshladi. Atrofdagilarning o'ziga achingannamo qarab turgani uchunmi, yo bugungi yo'qotish sababmi Ikromjon davra to'rida ortiq o'tirolmadi. Faqatgina sahnadan tushayotib, Gulining qulog'iga" kechir" deyishga ulgurdi xalos. Bu safar uni na amakisining o'tkir qo'llari va na mahalla oqsoqolining ilhaq termulishlari to'xtatib qola oldi. Sovuqdan-sovuq boshlangan to'y nihoyat o'z poyoniga yetdi. Sahna to'rida qolgan yolg'iz kelinni esa yangalari yetaklab ichkariga olib kirib ketishdi. Bir zumda shodiyona kunda kiyiladigan kiyimlar motam libosiga almashtirildi.

Erta tongda esa Ikromjonning nigoh marosimiga keltirilgan barcha buyumlar Nazira ayaning janozasiga ishlatildi.

Maxsuma OQQO'ZIYEVA